

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIGA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA BILIM BERISHLARI UCHUN USLUBIY TAVSIYALAR

Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Nosirova Nilufarxon

Annotatsiya. Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinflarda o‘qitish uslubi va ta‘lim texnologiyalari, hozirgi zamon innovatsiyalaridan foydalanish, yangi ta‘lim texnikalari, o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy, innovatsiya, boshlang‘ich ta‘lim, metodika, texnika, o‘quvchi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta‘limning jahon ta‘lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o‘z navbatida o‘quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o‘zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq. Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Bu ta‘lim yoslikdan berib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi

Yoshlikda olingan bilim — toshga o‘yilgan naqsh kabidir (Imom al-Buxoriy) Chindan ham, inson hayotining aynan yoshlik davrida o‘rganilgan har qanday bilim, ko‘nikmalar u ulg‘aygach, erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlik – kishi umrining bahor davri, unda hayotning bo‘lg‘usi yillari uchun urug‘ ekiladi. Ilm esa insonning hayot yo‘lida yo‘lchi

yulduz singari mayoq vazifasini o'taydi. Kelajak avlodga ta'lim berishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga juda mas'uliyat yuklanadi. Bolalarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining

sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa, ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, "Bu nima? Bu kim?", "Kim ko'p maqol biladi?", "So'z oyini", "Kim epchil-u kim chaqqon", "Men kimman" kabi o'yin tarzida o'tiladigan

metodlar bolalarni fikrlashi, eslab qolishi uchun zamin yaratadi. Rasmlar asosida o'tkaziladigan "Bu kim? Bu nima?" o'yinli metodini 1-2-sinf o'quvchilari uchun darslarda foydalanish mumkin. An'anaviy holda rasmni ko'rsatib ta'riflash so'ralsa ham yoki rasmni ko'rsatmay ko'zi bog'liq holda boshqa o'quvchilardan rasm haqida ma'lumotlarni so'rash orqali foydalanish mumkin. Masalan, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur, Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyev kabi buyuk insonlarning rasmlarini xoh ko'rsatib, xoh ko'zi bog'liq holda ta'riflab foydalanish mumkin. Bu metoddan mavzuga moslab foydalanish mumkin. "Baliq ovi" o'yini. 1-bosqich. Doskaning bir tomoniga dengiz rasmi, ikkinchi tomoniga akvarium rasmi tushiriladi. 2- bosqich. Dengizda baliqlar bo'ladi. O'quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib,uni orqa qismidagi savollarga javob beradi. 3-bosqich. Javob to'g'ri bo'lsa baliqni akvariumga, noto'g'ri bo'lsa dengizga qo'yib yuboradi.

"Raketa" o'yini. 1-bosqich. Doskaga raketa rasmi chiziladi, yoki, uchta raketa yasab savollar yozilgan kartochkalar ilinadi.. Raketa o'zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo'lishi kerak. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Qaysi guruh a'zolari savollarga to'g'ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi. 3-bosqich. To'g'ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi. Yangi mavzuni tushuntirish paytida raketa yetib borgan sayyoradan kelgan ma'lumotlar sifatida mavzu tushuntirilsa,qiziqarliroq bo'ladi.

"Kim g'olib?" o'yini. 1-bosqich. Ushbu o'yin o'quvchilarni o'tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga undaydi. Asosiysi, o'quvchilar ham g'oliblik uchun, ham ko'proq bilim olish uchun kurashadilar. 2-bosqich. O'quvchilarni ikki guruhga bo'lasiz va nomlaysiz. Ularga o'tilgan mavzu yuzasidan ketma-ket ma'lumot aytishlarini aytasiz va tayyorgarlik ko'rishlari uchun ma'lum vaqt ajratasiz.. 3-bosqich. Qaysi guruh a'zolari mavzu yuzasidan ko'proq va mazmunli ma'lumotlar aytgan bo'lsa, g'olib deb e'lon qilasiz. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini tashkillashda har bir dars bir-biridan farq qilishi kerak. Kutilayotgan natijalarga mos bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonini amalgam oshirish va muntazam takomillashtirib borishdan iborat. Pedagog dars

o‘tish jarayonida aktyor bo‘lish bilan bir qatorda ijodkor ham bo‘lishi kerak. Eskirib ketgan, siyqasi chiqqan metodlar ham o‘quvchi uchun qiziq bo‘lmay qoladi. Shuning uchun tajriba almashish, yangi narsa o‘rganish, ijodkorlik tuyg‘usini uyg‘otish va shakllantirish uchun kuzatib, tahlil qilish, metodik yordam berish asosiy maqsadimiz bo‘lishi kerak. Shundagina yuqorida ta’kidlanganidek, yoshlikda olingan bilim — toshga o‘yilgan naqsh kabi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Pedagogik texnologiya asoslari". J.G'.Yoldoshev, S.A.Usmonov. Toshkent2004y
2. Boshlang‘ich ta`lim bo‘yicha yangi taxrirdagi o‘quv dasturi, T. 2015
3. Karima Qosimova, Safo Mathonov va boshqlar- Savod o‘rgatish metodikasi, T. 2008.
4. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Holida G‘ulomova, Sharofat yo‘ldashevaaboshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, Noshir nashriyoti 2009